

Loyiha-smeta ishlarini bajarish uchun

31 - sonli ShARTNOMA

Termiz sh.

19 iyul 2022 yil

Bundan buyon **Buyurtmachi** deb yuritiladigan "Termiz shaxar Obodonlashtirish boshqarmasi" nomidan direktor Boysariyev M bir tomondan va «**TERMIZ GRAND ROAD PROJECT**» MChJ, bundan buyon **Bajaruvchi** deb ataluvchi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor U. Saidov, ikkinchi tomondan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. **Buyurtmachi: Termiz shaxar Pattakesar MFY Gulobod ko'chalarini joriy ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chikish topshiradi, Bajaruvchi** esa o'z zimmasiga oladi.

1.2. Shartnoma ishchi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun tuzilgan.

1.3. Ishchi loyihani ishlab chiqish shartnoma imzolanib kuchga kirgan kundan boshlanib, 15 ish kunida tugatiladi.

1.4. Ishchi loyiha Davlat ekspertizadan o'tkazilgan kun ishlar tugatilgan deb hisoblanadi. Agarda Davlat ekspertiza xulosasi ishchi loyiha Buyurtmachiga topshirilgan kundan boshlab 10 kundan kechiktirilsa, ishlarni tugatish muddati kechiktirilgan kunga uzaytirilgan hisoblanadi.

2. Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni amalga oshirishning bahosi **QQS siz 29 800 000 (yigirma to'qqiz million sakkiz yuz ming)** so'mni tashkil qiladi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi loyiha hujjatlarini bajarish va moliyalashtirish jadvaliga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnomani imzolagandan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 % miqdorida avans to'lovini amalga oshirilib qolgan 70% ish bajarilgandan keyin to'lab berishga kelishildi.

2.3. Bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan ishlar mazkur shartnomaning 4.4. moddasida o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng 5 (besh) bank kunida ajratilgan avans mablag'i miqdori ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.4. Loyiha-smeta hujjatlari bajaruvchi tomonidan to'liq bajarilib, ob'ekt bo'yicha davlat ekspertizasi tomonidan yakuniy ekspertiza xulosasi olingandan so'ng qolgan mablag' uchun topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, moliyalashtiriladi.

2.5. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

3. Tomonlar majburiyatlari

3.1. Bajaruvchi ishlarni topshiriq, boshqa dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. Bajaruvchi ishchi loyihani ishlab chiqqandan so'ng loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etishni o'z zimmasiga oladi.

3.3. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchining so'rovi asosida taqdim qiladi.

Ob'ektning bahosini joriy narxlarda hisoblab chiqish uchun Pudratchi (quruvchi) to'g'risida kerakli ma'lumotlarni shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddatining oxirgi kundan kamida 20 kun oldin Buyurtmachi Bajaruvchiga taqdim etadi. Agarda ushbu ma'lumot berilishi kechiksa shartnoma muddati ham o'shancha kunga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlariga muvofiq bajarilishida Buyurtmachi tomonidan bajarilishi zarur ishlarni bajarish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanishni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Ushbu shartnoma bo'yicha bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz va kamchiliklar bilan bajarsa va sifatsiz bajarilgan loyiha-smeta hujjatlaridan foydalanish natijasida qo'shimcha (ko'zda tutilmagan) ishlar va xarajatlar aniqlansa, bajaruvchi ushbu kamchiliklarni bartaraf etib, bir haftadan oshmagan muddatda o'z majburiyatlarini talab qilingan sifat darajasida qaytadan bajaradi va aniqlangan qo'shimcha xarajatlarni o'z

hisobidan qoplaydi, lekin, aniqlangan qo'shimcha xarajatlarni qoplash mazkur shartnoma qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Bajarilgan ishlarni topshirish va qabul qilish topshiriq talablariga binoan belgilanadi.

4.2. Ishlar bajarilishining alohida bosqichlarida va shartnoma muddati tugagandan so'ng bajaruvchi tomonidan rasmiylashtirilib, buyurtmachiga topshirilishi kerak bo'lgan hujjatlarning ro'yxati topshiriqda belgilanadi.

4.3. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiriqda ko'zda tutilgan hujjatlar to'plamini topshiradi.

4.4. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.2. bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.5. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.6. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

4.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

4. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

5.1. Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. Qo'shimcha shartlar

6.1. Bajaruvchi loyihani muddatidan oldin bajargan holda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

6.2. Bajaruvchiga bog'liq bo'lmagan xolatlarida loyihaning ma'lum qismini yoki biror loyihaviy yechimni vakolatli organlar bilan kelisha olmasa, (maxalliy hokimiyatlar, arxitektura qurilish boshqarmalari, Davlat harakat xavfsizligi boshqarmalari, muhandislik kommunikatsiyalarining egalari va x.k.) ishlarni bajarishning oxirgi muddatidan kamida 1 (bir) oy oldin Buyurtmachini yozma ravishda asoslangan hujjatlar bilan xabardor qiladi, Buyurtmachi esa shartnomaning bajarish muddatini uzaytirib beradi.

6.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

6.4. Bajaruvchi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni bajarish Buyurtmachi bilan kelishgan holda uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

6.5. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

Kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Surxondaryo viloyat iqtisodiy sudida e'tiroz tartibiga rioya qilgan holda, ko'rib chiqiladi. E'tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko'rib chiqish muddati e'tiroz berilgan tomon olganidan keyin 10 (10) oy muddatni tashkil etiladi. Mazkur shartnoma bo'yicha nizo kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

6.6. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va Bajaruvchi tomondan ishlar topshirilganda shartlashilgan xaqi kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma bahosining 20 (yigirma) foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lash Buyurtmachini to'lovning kechikishi yoki xizmatlar, ishlarning asossiz qabul qilinmaganligi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.7. Bajaruvchi tomonidan smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 (yigirma) foizidan oshmasligi lozim;

Penya to'lash Bajaruvchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.8. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6.9. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi.

6.10. Mazkur shartnoma 2022 yilning 31 dekabriga qadar amal qiladi.

6.11. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- Shartnoma bahosining kelishuv bayonnomasi (1-ilova)
- Bajarish va moliyalashtirish jadvali (2-ilova)
- Ishlarni amalga oshirish bahosini aniqlash smetasi (3-ilova)

8. KORRUPSIYA GA QARSHI KURASHISH VA BOS HQA SHARTLAR

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Uzbekiston Respublikasining Korruptsiyaga qarshi kurshish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora berishni taklif qilmaydi, tovlamachilik qilmaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora ya'ni hodimi o'z hizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2. Ikki tomonning uzaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan uzgarish va kushimchalar konuniy kuchiga ega buladi. Uzgarish va kushimchalar shartnomaga ilova kilinishi xam mumkin. Kilingan ilova ikki tomonning muxiri va imzosi bilan tasdiklangan bulishi shart.

8.3. Bir tomonlama shartnomani bekor kilishga tulov shartlari bajarilmaganligi va maxsulot yetkazib berish tartiblari buzilganligi asos buladi.

8.4. Shartnomada ko'rsatilgan mablag'dan ortiqcha bajarilgan ish hajmining mablag'ini buyurtmachi to'lab berishni o'z zimmasiga olmaydi.

7. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

«Bajaruvchi»

" TERMIZ GRAND ROAD PROJECT "

MChJ

Manzil: Termiz sh. Taraqiyot ko'chasi 3-uy

Telefon:

AT "Aloka Bank" Surxondaryo filiali


H/R: 2020 8000 7053 9275 1001

Bank kodi: 00401

INN: 308 493 584

OKONX: 66000

direktor



U. Saidov

(imzo)

«Buyurtmachi»

"Termiz shaxar Obodonlashtirish boshqarmasi"

Manzil: Termiz sh. Koshkor kiyzalasgi

Tel: 76-223-74-62

sh.x.v 1000228602240/704520110033

INN: 302505373 OKONX: 90211

ЎЗБ. РЕС. БОШҚА В. БОЗУРМУН. ФЕЗКУРАМА

№/П: 23402000300/10000/010

БОШҚА: МБ. ХККМ Ташкент ш.

ИНН: 201122918 МЕРС: 00014

Bank kodi:

INN:

direktor

(imzo)



M. Boicapuev

Yurist vizasi: Men "Termiz shaxar Obodonlashtirish boshqarmasi" yuristi, ushbu shartnoma amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy -huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonun va boshqa qonun xujjatlari talablariga mos kelishligini aniqladim.

« _____ » 2022 yil _____

Shartnoma bahosini kelishuvi

BAYONNOMASI

Biz, quyida imzo qo'yuvchilar: Termiz shahar Pattakesar MFY Gulobod ko'chalarini joriy ta'mirlash ishlarini loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chikish bo'yicha 2022 yil "18" iyul dagi 31-sonli shartnoma bahosini QQS siz 29 800 000 (yigirma to'qqiz million sakkiz yuz ming) so'mga teng deb kelishilganini tasdiqlaymiz.

Ushbu bayonnoma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtasida o'zaro hisob -kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

«Bajaruvchi»

"TERMIZ GRAND ROAD PROJECT"
MChJ

Manzil: Termiz sh. Taraqiyot ko'chasi 3-uy

Telefon:

AT "Aloka Bank" Surxondaryo filiali


H/R: 2020 8000 7053 9275 1001

Bank kodi: 00401

INN: 308 493 584

OKONX: 66000

direktor  U. Saidov



«Buyurtmachi»

"Termiz shahar Obodonlashtirish boshqarmasi"

Manzil: Termiz sh. Taraqiyot ko'chasi 3-uy

Tel: 76-223-74-62

sh.x.v 10002286072401704520110039


INN: 302505373 OKONX: 90211

ЎЗБ. РЕС. АЛОКА
БЎЖАРМАНИ ҚЎЗГАРТУРУС

H/r: 23402000300100001010

Bank kodi: 00014 INN: 201122919

direktor 



Termiz shahar Pattakesar MFY Gulobod ko'chalarini joriy ta'mirlash ishlarini loyixa-smeta xujjatlarini ishlab
chikish

BAJARISH VA MOLIIYaLASH TIRISH JADVALI

ming so'm

№	Bajariladigan ishlarning nomi	Qiymati	Bajarish		Moliyalashtirish muddati	
			Muddati	Qiymati	2022 yil	2022 yil
1	A'vans to'lovi				8 940,000	
2	Loyixa-smeta ishlarini bajarish (QQS siz)	29 800,000	15 ish kuni	29 800,000		20 860,000
	Jami:	29 800,000		29 800,000	8 940,000	20 860,000



Bajaruvchi



Ishlarni amalga oshirish bahosini aniqlash
S M Y e T A S J

Ob'ekt nomi: Termiz shaxar Pattakesar MFY Gulobod ko'chalarini joriy ta'mirlash ishlarini loyixasmeta xujjatlarini ishlab chikish.

Buyurtmachi tashkilotning nomi: "Termiz shaxar Obodonlashtirish boshqarmasi"

Loyiha (qidiruv) tashkiloti nomi: "TERMIZ GRAND ROAD PROJECT" MChJ

T.r	Ishlarning nomi	Loyihalash va qidiruv uchun narxlar to'plamining qismlar, boblar, jadvallar va bandlari	Kelishilgan bahosi, ming so'm
1	2	3	5
	Termiz shaxar Pattakesar MFY Gulobod ko'chalarini joriy ta'mirlash ishlarini loyixasmeta xujjatlarini ishlab chikish.	O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirining 2019 yil "19" 08 dagi 396-buyrug'i bilan tasdiqlangan "Shartnomaviy joriy narxlarda quriladigan ob'ektlar uchun loyihalash tadqiqot ishlari narxini aniqlash tartibi haqidagi Nizom" ilovalariga asosan	Buyurtmachi bilan kelishuv asosida shartnoma qiymati 29 800,000
Jami to'lov uchun			29 800,000

Jami QQS siz 29 800 000 (yigirma to'qqiz million sakkiz yuz ming) so'm.

Tuzdir

U. Saidov



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyiha turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi:

Buyurtmachi Termiz shahar Obodonlashtirish boshqarmasi rahbari M.Boysariyev va **Bajaruvchi** TERMIZ GRAND ROAD PROJECT» MChJ rahbari o'rtasida 29 800 000 (yigirma to'qqiz million sakkiz yuz ming)so'mlik shartnoma tuzish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:

Termiz shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 19-iyulda ishlab chiqarilgan va tizim orqali jo'natilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Mazkur loyihani qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Termiz shahar yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:**



S.Sayfiddinov

2022-yil 19-iyul